

## O'ZBEKISTONDA EKILADIGAN CHAROS UZUM NAVINING XUSUSIYATLARI

Mo'minova O'g'ilcha Maxmud qizi  
Farg'ona Davlat Universiteti Tuproqshunoslik  
mutaxassisligi II-bosqich magistranti  
Tel: +99890 785 00 17

Masardinov Xushnodbek Bozorboy o'g'li  
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti II-bosqich magistranti.  
[xushnodbekmasardinov@gmail.com](mailto:xushnodbekmasardinov@gmail.com) +99894 385 36 25

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistondagi CHAROS uzum navining ayrim xususiyatlari xaqida ma'lumotlar berilgan.

Xozirgi kunda boshqa qishloq ho'jaligi soxasi yo'nalishi kabi Uzumchilik, Vinochilik soxasi ham ja'dal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu soxaga davlat tizimida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, viloyatlarda uzum ekish maydonlari kengaytirilmoqda. Yildan yilga uzumning hosildorlik darajasi ortib bormoqda. Ayniqsa vino bop uzum navlarini ekish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish, uzum yetishtirish, uni qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha klaster tizimini yo'lga qo'yish, alkogol bozorini tartibga solishning samarali mexanizmlarini keng joriy etgan holda respublikani sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, sohaning eksport salohiyatini kuchaytirish, investitsion jozibadorligini oshirish, shuningdek, vinochilik turizmini (enoturizm) rivojlantirish maqsadida PQ-5200 sonli Prezidentimizning qarori qabul qilindi. Qaror "Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" bo'lib hozirda qaror yuzasidan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan uzumchilik bilan shug'ullanaman degan bog'bon, fermerlarga banklar tomonidan imtiyozli qator kreditlar ajratilib, ular xar tomonlama qo'llab quvvatlanmoqda. Ularga uzumning sharoitga mos navlari berilmoqda. Bularning xammasi uzumchilik soxasiga qaratilgan muxim e'tibordan darak berib turganining yorqin misoli.

<sup>2</sup>Tok - qimmatbaho subtropik o'simlik. Uning mevasi o'zining parhezlik va oziqaligi jihatidan inson organizmi uchun eng zarur mahsulot hisoblanadi. Pishib yetilgan



uzum tarkibida, ayniqsa kishmish navlarida 28-30% gacha organizm tomonidan tez o'zlashtiriladigan qandlar, glyukoza, fruktoza va saxaroza bor. Fruktoza - oshqozon osti bezining ishtirokisiz tez singadi. Shu tufayli qand kasalligi (qandli diabet)ning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yangi uzilgan uzum tarkibida inson salomatligi uchun zarur bo'lgan olma, vino, limon, qahrabo, shavel, chumoli va boshqa bir qancha organik kislotalar, kaliy, kalsiy, fosfor, natriy kabi mineral tuzlar, meva po'sti tarkibida rang beruvchi moddalar (pigmentlar), dubil moddalar bor.

Uzum mevasi A, S, R, RR, V1, V2, V6, V, kabi vitaminlarga boy. V guruh vitaminlar, aminokislotalarning qanday miqdorda saqlanishi uzum navining pishish muddatiga, g'ujumlarning urug'li yoki urug'sizligiga, tok tupining o'sish kuchiga, ob-havo sharoitiga hamda parvarish usullariga bog'liq. Olimlarning kuzatishiga qaraganda, V guruhiga mansub vitaminlar, aminokislotalar va mikroelementlar kechpishar uzum navlarida ko'proq to'planar ekan. Uzuning shifobaxsh xususiyati qadimdan ma'lum bo'lib, tabobatda turli kasalliklar (sil, kamqonlik, kam quvvatlik, oshqozon-ichak, siydik yo'li, yurak xastaligi va h.k.)ni davolashda keng qo'llanilgan. Uzum bilan davolashning ilmiy asoslangan yangi yo'nalishi-ampeloterapiya (yunoncha ampelos uzum, therapela davolash) tabobatda keng qo'llaniladi. Uzum sharbati, ayniqsa èsh bolalar va keksalar uchun bebaho oziqa.

U organizmda moddalar almashinuvini yaxshilash, qon tomirlarini kengaytirish, jigar faoliyatini yaxshilash, yurak muskullarini oziqlantirish, qonni tozalash va ko'paytirishdek xususiyatlarga ega.

K.V.Smirnov va boshqa olimlarning ma'lumotlariga qaraganda 11 yangi uzum sharbatining quvvati taqqoslanganda 1,7 l, sigir sutiga, 650 g, mol go'shtiga, 1 kg, baliqqa, 300 g, brinzaga, 500 g, nonga, 3 -5 dona tuxumga, 1,2 kg kartoshkaga, 3,5 kg, pomidorga, 1,5 kg, olma, nok yoki shaftoliga teng kelar ekan.

Uzumdan turli maqsadlar (iste'mol qilish, qayta ishlash vah.k) da foydalaniladi. Asosan, iyul oyidan noyabr oyigacha yangiligicha iste'mol qilinadi. Maxsus sovitkichlarda saqlanganlarini mart-aprel oylarida ham tansiq va shifobaxsh meva sifatida iste'mol qilish mumkin. Shuningdek, yangi uzumdan murabbo, kompot, sharbatlar, shinni, konsentratlar, yuqori sifatli vinolar ham tayyorlanadi.

Mayizbop navlari quritilganda o'ta to'yimli, shifobaxsh mahsulot beradi. Mayiz (kishmish, garmièn va h.k.) qadimdan to'yimli va shifobaxsh oziq sifatida qadrlanib parhezlik xususiyatiga ega bo'lgan. Uzum mayizi tarkibida 80% gacha qand moddasi bo'lib, asosan, u glyukoza va fruktozadan iborat.<sup>2</sup> Yuqoridagi



ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, uzum naqadar shifobaxsh foydali o'simlik ekanligi. Shuning uchun ham hozirda bunga talab ortib bormoqda.

Xo'raki uzumlar nav tarkibi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular eng erta pishar (Oq surxak, Surxak kitabskiy, Oq xalili, Qora xalili, Oq chillaki, Qora chillaki), erta pishar (Qora kishmish, Perlet, Muskat vengerskiy, Ranniy VIR), o'rta pishar (Andijanskiy cherniy, Go'zal qora, Qora janjal, Echkimar, Oq kishimsh, Kishmish VIR, Kishmish Xishrau, Rizamat, Xusayni, Charos, Shakar angur), o'rtacha kech pishar (Kattaqo'rg'on, Muskat aleksandriyskiy, Nimrang, Pobeda) hamda kech pishar (Karaburnu, Muskat uzbekistanskiy, Oktabrskiy, Pozdny VIR, Oq toyifi) navlarga bo'linadi.

Xo'raki navlar foydalanishiga qarab joyida iste'mol qilnadigan, uzoq joyga yuboriladigan hamda qishda saqlanadigan xillarga bo'linadi.

**Charos** – bu keng tarqalgan va eng yaxshi xo'raki navlardan biri hisoblanadi. Uzun boshlari konussimon shaklda, vazni 300 gr. G'ujumlari o'rtacha yirik, yumaloq, ovalsimon, ba'zan bir oz yassi qora rangda mumsimon g'ubor bilan qalin qoplangan bo'ladi. G'ujumi sersuv, po'sti qalin. Ta'mi oddiy, xushxo'r. Nisbatan sovuqqa chidamli, namsevar. G'ujumlarining qandiligi 21–32 foiz, kislotaliligi 5,5–8 lg. O'rtacha hosildorligi 200–220s/ga.

**Tajribada olib borilgan ishlar.** Tajriba Farg'ona viloyatining Fermer xo'jaligiga qo'yilgan bo'lib, umumiy ikki hektarni tashkil qiladi. Tajriba dalasida sizot suv satxi 3-3,5 m da joylashgan bo'lib, shag'alli qatlam xam 1,5-2.0 m da joylashgan. Tajribada uzumning 5-6 xil navi ekilgan bo'lib, ular ichida ertaki Charos navi tajribasidan olingan natijalarni bayon qilaman. Tajriba 3x2 sxemada ekilgan. Tajriba qo'yishdan maqsad Farg'ona viloyatining qumli, shag'alli muxitida o'sadigan uzum navlarini tanlash va o'g'it me'yorini to'g'ri tanlash. Bilamizki, Charos navi erta pishar nav xisoblanadi. Bu navlar erta pishishi va sershiradorligi bilan ham ajralib turadi.

<sup>3</sup> Farg'ona viloyatida bog'dorchilikni, ayniqsa, uzumchilikni rivojlantirish borasida o'ziga xos tajriba maktabi yaratilgan.<sup>3</sup> Tajribamizga vaqtida suv va o'g'itlar berildi. Birinchi o'g'itlash ona tokzor uchun may oyida 55 kg/ga azot, 40 kg /ga fosfor, 15 kg/ ga kaliy o'g'itlari solindi. Oradan ikki hafta o'tib ikkinchi oziqalantirish amalga oshirildi. Vegetatsiya davrida ko'chatzorlar 9 marta sug'orildi. Xar oziqlantirishda 55-60 kg/ga amiakli selitra, yoki 80-90 kg/ga sulfat ammoniy solish mumkin. Farg'ona viloyati shaoitida uzumzor ko'chatzor bog'larini tashkil qilish va gektaridan 60 t hosil olish rejalashtirilgan. Xozirda tajriba ishlari muvaffaqiyatli davom etmoqda.



**Ko'chatzorlarni barpo qilish.** Qalamchalar tok kesish vaqtida (oktabr-noyabr o'rtalarida) tayyorlanadi. Tokni ko'milmaydigan janubiy rayonlarda bahor faslida, kurtaklar uyg'onmasdan oldin ham tayyorlash mumkin. Qalamchalarning uzunligi odatda 50–60 sm, yo'g'onligi esa kuchli o'sadigan xo'raki va kishmishbop navlarida (husayni, Toyifi, Kattaqo'rg'on, Nimrang, Qora kishmish, Oq kishmish) 6–13 mm, o'rtacha va kuchsiz o'suvchi vinobop navlar (Saperaviy, Muskat, Rkatsitelli, Venger muskati)da 510 mm bo'lishi lozim. Bo'g'im og'irligi 5–15 sm bo'lgani ma'qul.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, uzumning juda ko'p navlari bor faqatgina ularga to'g'ri joy tanlab meyorida oziqlantirish eng to'g'ri yo'l xisoblanadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni to'g'ri qo'llash, bu yaxshi uzum ko'chatzorini tashkil qilishga ko'makchi bo'ladi. Xamda yuqori hosildorlik vinochilikning asosi xisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.lex.uz

2.SH.Temurov. "Uzumchilik" Tosh-2002

3. R. Qurbonov "Uzum yetishtirish sirlari" Tosh-2013

4.Ye.A.Shreder, K.I.Baymetov, Sh.M. Axmedov "O'zbekiston fermer xo'jaliklarida uzum ko'chatlarini ko'paytirish texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar" Tosh-2015

5.R. Yunusov, K. Umarov, B. Karimov "Bog'dorchilik" Tosh-2016

6.dala tajribasidagi ma'lumotlar

